



## NUTQ MADANIYATINI BUZUVCHI FAKTORLAR

Bazarov Sherali Abdinazarovich  
*Termiz agrotexnologiyalar va  
innovatsion rivojlanish instituti  
O'zbek tili va adabiyoti (tillar)  
kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqni buzuvchi faktorlar haqida aytib o'tilgan. Maqola davomida adabiy nutqning afzalliklari tahlil qilingan. Maqola so'ngida adabiy til me'yorlari hamda notiqlik haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, varvarizm, jargonlar, notiqlik.

**Аннотация:** В настоящей статье рассмотрены проблемы лингвистических нарушений в речи. Анализированы преимущества литературного языка. В выводах статьи приведены сведения об ораторской речи и даны рекомендации по литературным нормам языка.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: речь, варваризмы, жаргоны, ораторство

**Abstract:** This article talks about the factors that disrupt the given speech. The article analyzes the advantages of literary speech. At the end of this article, necessary information about literary language standards and public speech elements are given.

**Key words:** Speech, barbarism, slang, oratory.

Har bir ommaviy axborot vositalari xodimlari o'zining nutqi bilan boshqa jamiyat vakillaridan farq qilib turishiga ko'pincha guvoh bo'lamiz. Chunki bu soha vakillari doimo adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilgan holda muloqotni amalga oshiradi. Aslida har bir fuqaro adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda nutqiy faoliyatdan foydalanish zarur.

Nutqning muhim talablaridan biri uning sof bo'lishidir. Nutqning sofligi deyilganda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda qo'llanilishi tushuniladi. Ba'zida uchrab turuvchi til uchun begona bo'lgan unsurlar, axloq normalariga to'g'ri kelmaydigan so'zlar nutqning sofligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday so'zlarni ishlatilish usuliga ko'ra bir necha guruhlarga ajratamiz:

1. Gaplarda so'z va qo'shimchalarning noto'g'ri qo'llanilishi; 2. Shevaga oid so'z va iboralarning, so'z birikmalarining ishlatilishi; 3. Varvarizm – o'rinsiz





qo'llangan chetdan kirib kelgan olinma so'z va so'z birikmalari; 4. Jargonlar; 5. Vulgarizmlar. Nutq qoidalarini, lisonning sofligini buzuvchi nome'yoriy unsurlarning birinchisi fonetik-orfoepik jihatdan so'z va qo'shimchalarning noto'g'ri ishlatalishidir. Meni do'stim, kitoblarim uyga qolibdi kabi. Aslida mening do'stim, kitoblarim uyda turibdi shaklida ishlatalishi kerak. Aslida bir-biriga o'xshash ko'rindigan bu qo'shimchalarning yozilishi tubdan farq qiladi. Bundan tashqari ma'nodosh bo'lgan leksemalarning o'rin almashinishi ham nutqning mazmuniga putur yetkazadi. Masalan, osmon so'zini olaylik. Uning samo, falak, fazo, ko'k, gardun kabi ma'nodoshlari mavjud. Bu so'zlar turli hissiy-emotsional bo'yoqdor so'zlar hisoblanadi va har birining qo'llanish usuli bor. Jumladan, gardun so'zi tarixiy shaklda qo'llanadi. Ularning o'rni almashsa, gap ma'nosida o'zgarish bo'ladi. Masalan samoga qara, ko'kda yulduzlar mavj urmoqda singari gap manosi o'zgaradi. Bu so'zlar ichida osmon so'zi dominanta ya'ni bosh so'z hisoblanadi.

Nutqning sofligini buzuvchi ikkinchi omil – bu dialektizmlar, ya'ni shevaga oid so'zlar hisoblanadi. Biz ko'cha-ko'yda, uyda kundalik hayotimizda shevadan foydalansak bo'ladi, lekin ta'lim-tarbiya ishlarida, rasmiy tadbirlarda, ish va o'qish jarayonlarida, teleradiokanallarda shevaga oid so'z va unsurlarning ishlatalishi nutqimizning sofligiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa o'qituvchi-pedagoglar, davlat organlari ishchilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillaridan adabiy tilda so'zlashish talab etiladi.

Varvarizmlar – chetdan kirib kelgan so'zlar, adabiy tilimiz uchun begona bo'lgan so'zlarni ishlatalish ham nutqning sofligiga putur yetkazadi. O'rinsiz ishlataladigan bu so'zlar boshqa tillarga mansub bo'lib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, migratsiya, tijorat va boshqa yo'llar orqali nutqimizga kirib kelmoqda. Jumladan, ok, okey, obshi, pajalista, vabshe singari so'zlar o'zbek adabiy tili uchun xos bo'lmagan so'zlardir. Ba'zi bir telekanallar jurnalistlari ham olib borayotgan ko'rsatuvida boshqa tilga xos bo'lgan so'zlarni suhbat jarayonida qo'llaydi.

Jargonlar – ba'zi kasb egalari yoki guruhlarning o'zları o'ylab topgan "tili" bo'lib, faqat shu soha vakillariga tushunarli bo'lgan atamalar jargonlar deyiladi. Jargonlar ma'lum guruhga mansub kishilar o'rtasidagi sun'iy til hisoblanadi. Blogerlar jamiyatda bo'layotgan yangiliklarni yoritishda ushbu so'zlarni ham qo'llaydilar. Bu doimo ham qo'llash mumkin degani emas aslida.





Nutqning sofligini buzuvchi omillardan yana biri vulgarizmlar hisoblanadi. Vulgarizm so'zi lotinchadan olingen bo'lib, dag'al, qo'pol degan ma'noni anglatadi. Vulgarizmlarga adabiy tilga xos bo'limgan qo'pol so'zlar, so'kish, qarg'ish, haqorat so'zlar kiradi. Bu so'zlarni ishlatish nafaqat odob-axloq qoidalariga balki qonun-qoidalarga ham ziddir. Teleradiokanallarda jonli efir vaqtida shunday hodisa yuz bermasligi uchun jurnalistlar ogoh bo'lishi lozim bo'ladi.

Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutq tufayli borliqni umumlashgan holda mavhumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilarini, idroki, xotirasi, o'y va hayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo'lishi va amal qilishida, kishi ongingin rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Nutq qo'llanish sohasiga qarab: badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllarga ega bo'ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta'sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo'lib qolishi kerak<sup>1</sup>.

Insonlar nutqida uchrovchi ortiqcha takrorlar, pauzalar, duduqlanishlar ham nutqning sofligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ular gapirayotgan gapimizni saviyasiz va mantiqsiz qilib qo'yadi. Bunday nutq tinglovchini zeriktiradi, matnning mazmuniga putur yetkazadi. Xo'p, anovi, masalan, mayli, haligi, aytgancha, menimcha, ehh, uhh, uff, uni-buni, nimaydi, balki singari so'zlar insonlar nutqida ko'p takrorlanaversa, bu holat ham nutqning sifatiga ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi. Buning oldini olish uchun ko'proq kitob mutolaa qilish, adabiy so'zlashuv ustida mashq qilish tavsiya etiladi. Har bir jurnalist ko'rsatuv yoki eshittirish tayyorlash jarayonida, albatta, talaffuz me'yorlariga amal qilishi kerak. Tomoshabin yoki tinglovchi aytilayotgan har bir so'zning ma'nosini anglab olishi uchun journalist intonatsiya bilan ma'lumotni yetkazishi shart.

Nutqimizni adabiy til me'yorlariga rioya qilish, so'zlearning yangi ma'nolaridan foydalanish, takroriylikdan voz kechish, badiiy-uslubiy jihatdan boyitish orqali ta'sirchan qilishimiz mumkin. Ko'proq badiiy asarlar o'qish, so'zlearning imlosiga, izohiga ahamiyat qaratish kerak. Bugungi kunda nutqning sofligini buzuvchi omillarni

<sup>1</sup> Bazarov Sh., "Nutq va nutqiy jarayon", "Ma'mun akademiyasi" jurnali, 2023-yil 9/4-son, b — 23.





bartaraf etish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, o'zbek va jahon adabiyotidagi asarlar nashrlari ko'paytirildi. "O'zbekiston Respublikasi Davlat tili to'g'risida"<sup>2</sup> gi qonunning ijrosi ta'minlanmoqda.

Ba'zi televideniyelarda, jumladan "Zo'r tv", "MY 5" telekanallarida efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarda shevaga xos bo'lgan so'zlar qo'llanishiga sababchi bo'lmoqda. Masalan, "Zo'r tv" telekanalining "Uxlamaysizmi?" dasturida, "MY 5" telekanalining "Amirxon Umarov shousi" ko'rsatuvida adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan so'zlar bilan bir-birini haqorat qilgan joylarigacha efirga uzatishmoqda. Internetda "Tik-tok" platformasida tanilishiga harakat qilayotgan tiktokerlar yoki vayn oluvchilar bilan suhbat uyuştirmaqda. Aslida, ushbu ko'rsatuv tasvirga olinishidan oldin televediye madaniyati haqida batafsil ma'lumot berish kerakki, ular shou ko'rsatuvida maynavozchilik qilmasligi uchun. Shunday xolatlar bo'lmoqdaki, ko'rsatuv reytinggi ko'tarilishi uchun televideniyega olib chiqilmasligi kerak bo'lgan mavzularga qo'l urilmoqda.

Jamiyatimizda shunday insonlar borki, ularni hamma yaxshi tinglashadi. Ularga ergashishadi. Bular notiqlardir. Notiqlik san'atida tinglovchini, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiq nutqi chiroyligi, jozibali bo'lishi shart. Chiroylilikka erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumlalar jimjimadorligiga katta e'tibor beriladi. Ushbu ma'noda mana bu satrlar ancha o'rinli aytilgan: "Notiqlik avvalo chiroyligi gapirishdir. Ammo nutqning faqat chiroyligi bo'lishi hali yetarli emas, har qanday bema'ni safsatalarni ham juda chiroyligi qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi"<sup>3</sup>.

Jurnalist va blogerlar nutqining muhim fazilatlaridan biri – ifodalilik, ta'sirchanlikdir. Ifodali, ta'sirchan nutq tinglovchida qiziqish uyg'otadi, uning ongiga tez yetib boradi, uning e'tibori va qiziqishini qozonadi. Nutqning aloqaviy sifatlari-aniqligi, to'g'riliqi, mantiqiyligi, sofligi (tozaligi) – nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi<sup>4</sup>. Bizningcha, har bir ko'rsatuv efirga uzatilishidan oldin xalqimiz madaniyatiga to'g'ri kelishligi, unda yoritilayotgan mavzu keng jamoatchilikka salbiy ta'sir ko'rsatmasligi muhim deb hisoblaymiz. Ba'zi bir

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-121051>

<sup>3</sup> Содикова М., Жўраева Ж. Сўздан сўзниг фарқи бор.— Тошкен — “Фан” 1966, 7-8 бетлар.

<sup>4</sup> Bazarov Sh. "Jurnalist va blogerlar faoliyatida nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati", "Tamaddun nuri" jurnali, 2023-yil 7-son, b — 84





ko'rsatuvlar reytingini ko'tarish uchun ma'naviyatida qusuri bor shaxslarni teleekranlarga chiqarish mumkin emasligini barcha bilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunga O'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun, Toshkent sh., 1995-yil 21-dekabr, 167-I-son.
2. Содикова М., Жўраева Ж. Сўздан сўзниг фарқи бор.— Тошкен — “Фан” 1966.
3. Bazarov Sh. “Jurnalist va blogerlar faoliyatida nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati”, “Tamaddun nuri” jurnali, 2023-yil 7-son.
4. Abdinazarovich, B. S. (2023). AVESTO YOZUVI.
5. Bazarov, S. (2023). So'g'd yozuvi. Академические исследования в современной науке, 2(15).
6. Abdinazarovich, B. S. (2022). Yozuv va uning kelib chiqish tarixi. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(4).
7. 11. Давыдов, Ю. Д., & Базаров, Ш. А. (2021). Феномен неоднозначности в произведениях искусства. Инновации в педагогике и психологии, 4(7).
8. Bazarov Sh., “Nutq va nutqiy jarayon”, “Ma'mun akademiyasi” jurnali, 2023-yil 9/4-son.

